

KARAM O'SIMLIGINING UMUMIY KASALLIKLARI VA UNGA QARSHI KURASH CHORALARI

*To'raboyev Mirzaraxmat Baxtiyor o'g'li
Erkinova Muattaroy Sherzodbek qizi*

Annotatsiya: Hozirgi kunda O'zbekistonda va boshqa mamlakatlarda ham sabzavotlarning o'rni katta. Shulardan biri karam o'simligi ham shular qatoriga kiradi. Karam o'simligi ko'p hududlarda ekiladigan va hosili ham o'ziga xos bo'ladigan sabzavot karam o'simligida "Qora son", "Soxta un-shudring", "Fuzarioz", "Fomoz" kasalliklari uchraydi. Bunga qarshi kurash usullari orib borish ko'zda tutilgan.

Kalit so'zlar: Fomoz, fuzarioz, fitosporin, qora son, bordo suyuqligi, infeksiya.

Karam-karamdoshlar oilasiga mansub, bir, ikki va ko'p yillik o'simliklar turkumi. Karamning Yevro Osiyo va SHimoliy Afrikada 35 ga yaqin turi tarqalgan. Ko'pgina turlari O'rta dengiz atrofi va Xitoydan kelib chiqqan. Turlari oq boshli karam, qizil karam, gulkaram va pekin karami.

Qora son kasalligi: Bu kasallik bilan kasallangan karamning tomir bo'g'ini yonidan novdaning ostki qismi qorayadi va natijada o'simlik nobud bo'ladi. Kasallik tuproq namligi yuqori bo'lganda, harorat tebranganda va karam ko'chatlari juda ham qalin ekilganda rivojlanadi. Kasallik infeksiyasi esa tuproqda yig'iladi.

Qarshi kurash choralari: Ko'chat ekishdan 3 kun avval tuprog'iga 80% oltingugurtni 1kv/m ga 5 gr hisobidan solish yoki ekish oldidan urug'larni 1-2 soat davomida Fitosporin eritmasidan (12-16 gr/l) ivotish kerak bo'ladi yoki kasallik o'choqlariga 1% li Bordo suyuqligi yoki margansovkaning eritmasi 1kv/m ga 1L.

Soxta –unli shudring kasalligi: bu kasallik zamburug'lar orqali tarqaladi. Kasallik o'simlikning barcha yer ustki qisimlarini va ko'chat barglarini zararlaydi. Dastlab urug'pallalarida va ko'chat barglarining ustki tomonida sarg'ish – yashil rangli noaniq dog'lar paydo bo'ladi, barglarning ostki tomonida esa kuchsiz, oq g'uborli dog'lar ko'zga tashlanadi. Bu do'glar kattalashib barglarni ham qoplab oladi. Natijada burglar sarg'ayadi va qurib qoladi. Kasallikning bunday alomatlari urug'likning barglarida ham uchraydi.

Qarshi kurash usullari: O'simliklarni almashlab ekishni joriy qilish, yer maydonini o'simlik qoldiqlaridan tozalash, ekin maydonlariga oltingugurtni tuproq bilan 1:1 nisbatta aralashtirib changlatish.

Fuzarioz sarg'ayishi va so'lishi: Fusarium oxysporum fuzarioz conglutinans qo'zg'atadi. Patogen karam va boshqa butguldoshlar oilasiga mansub ekinlarning nihol va yetilgan o'simliklarni zararlaydi. Issiqxonalarda nihollar, dalada yosh va yetilgan o'simliklarning barglari sarg'ayadi, dog'lar rivojlanib, ola-chipor tus oladi, tomirlari qorayadi, o'simliklar o'sishdan orqada qoladi, karam boshi kichik va burglar

to'kilishi natijasida yalang'och bo'lib qolishi kuzatiladi. Karam navlari zamburug' irqlari bilan har xil darajada zararlanadi. Patagenning xlamidosporalari tuproqda 11 yilgacha, karam boshida omborxonalarda keyingi mavsumgacha saqlanadi. Tuproqda kaliy yetishmasligi fuzariozni kuchaytiradi.

Qarshi kurash choralari: Chidamli navlar ekish, urug'likka ekishdan oldin trixodermin yoki boshqa fungitsidlar bilan ishlov berish, issiqxonalarni dezinfeksiya va har 5-6 yildan keyin qayta joylashtirish shartiga to'g'ri keladigan almashtirib ekishni joriy etish, o'simliklar qoldiqlarini daladan chiqarib yuborish.

Fomoz (quruq chirish) kasalligi: Karamning urug'pallasi, barglari, karam o'zagi va tomirlaridan och kulrang yoki qo'ng'ir dog'lar, dog'larda esa qora nuqtalar paydo bo'ladi. Kasallik alomatlari qora songa o'xshab ketadi. Kasallik rivojlanishiga havo namligining yuqoriligi va iliqiligi sabab bo'ladi. Infeksiya o'simlik qoldiqlarida va urug'larida saqlanib qoladi

Qarshi kurash choralari: Karamni bir joyga 4-5 yildan ortiq ekmaslik, zararkunandalar bilan o'z vaqtida kurash olib borish va terimdan keyin o'simlik qoldiqlarini yig'ishtirib olish va yo'qotish.

Ildiz chirish kasalligi. Bu kasallikni zamburug'lar qo'zg'atib, palakli ekinlarni ko'proq zararlaydi. Ochiq va yopiq maydonlarda bu kasallik bilan kasallangan o'simliklarni ildizlari bo'g'inlarigacha chiriydi. Zamburug'lar o'simlikka ildizlari zararlangan joylardan o'tib, ildiz va ildiz bo'g'inlarining qorayib, chirishiga olib keladi. Issiqxonalarda ko'chat tayyorlash davrida o'simlik ildiz cherish kasalligi bilan zararlanadi.

Qarshi kurash choralari. Almashlab ekishni joriy qilish, urug'larga ekishdan oldin termik ishlov berish. O'simliklarni rivojlanish davrida agrotehnik tadbirlarni o'z muddatlarida o'tkazish, va yosh ko'chatlarni 0,2% li Fundazol va Derazol eritmalari bilan sug'orish.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. M . Mahammedov. Agro kimyo himoya va o'simliklar karantini. Toshkent 2019 – yil 1- nashr
2. Rustam Nizomov, Faxriddin Rasulov. O'zbekiston qishloq va suv xo'jaligi. 2020 – yil 6- nashr
3. F. Rasulov. Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ITI. 2022-yil O'zbekiston qishloq va suv xo'jaligi. 6-nashr.
4. A. Shokirov, M. Jadigirova. 2022-yil. Agro ilm 4-son.